

INGLIZ TILIDA SO‘Z TARTIBI GAPNING KOMMUNIKATIV MARKAZI - REMANI IFODALOVCHI DOMINANT VOSITA SIFATIDA

Po‘latova O‘g‘ilxon Abduxaliqovna

ADU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6975763>

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilida so‘z tartibi gapning kommunikativ markazi - remani ifodalovchi dominant vosita sifatida e‘tirof etiladi va shu xususda so‘z yuritiladi. Masala ustida izlanish olib borgan tadqiqotchilarning qarashlari, ingliz tilida gap bo‘laklarining aktuallashuvida so‘z tartibining o‘ziga xos xususiyatlari, so‘zlovchi kommunikativ intensiyasini to‘g‘ri yetkazishda so‘z tartibi dominant vosita ekanligi tegishli misollar orqali tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: so‘z tartibi, aktual bo‘linish, aktuallashgan bo‘laklar, rema kulminatsiyasi, emfatik ufg‘u, inversiya.

ПОРЯДОК СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ КАК ДОМИНИРУЮЩЕЕ СРЕДСТВО ВЫРАЖЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОГО ЦЕНТРА ПРЕДЛОЖЕНИЯ – РЕМЫ

Аннотация. В статье порядок слов в английском языке утверждается в качестве доминирующего средства выражения коммуникативного центра предложения – ремы. На соответствующих примерах анализируются взгляды исследователей, проводивших исследования по данному вопросу, особенности порядка слов в актуализации частей речи в английском языке, то, что порядок слов является доминирующим средством в правильной передаче коммуникативной интенции говорящего.

Ключевые слова: порядок слов, актуальное членение, актуализированные фрагменты, рема-климакс, эмфатический горизонт, инверсия.

WORD ORDER AS THE DOMINANT MEANS EXPRESSING THE COMMUNICATIVE CENTER OF THE SENTENCE - RHEME IN ENGLISH

Abstract. The article deals with the word order as the dominant means expressing the communicative center of the sentence - rheme in English. The views of the researchers who studied the issue, the specific features of word order in the actualization of parts of sentence in English, word order as the dominant means in conveying the communicative intention correctly are analyzed through relevant examples.

Keywords: word order, actual division, actualized parts, culmination of rheme, emphatic stress, inversion.

KIRISH

Agglyutinativ tillardan farqli o‘laroq analitik-flektiv tillarda (garchi bu tillarda fleksiyalar bo‘lsa ham, ularning miqdori katta emas) gapdagi so‘zlar orasidagi sintaktik munosabat ko‘proq so‘z tartibi va yordamchi so‘zlar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun analitik tillarda so‘z tartibi qat‘iy, har bir gap bo‘lagi o‘z o‘rnida bo‘lishi shart.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bunday tillarda odatda gapning egasi kesimdan oldingi o‘rinda, kesim egadan keyingi o‘rinda, agar kesim o‘timli fe‘l bilan ifodalangan bo‘lsa, uchinchi o‘rinda to‘ldiruvchi turadi. Aniqlovchining o‘rnini belgilab bo‘lmaydi, u doimo ot bilan bog‘langan bo‘ladi; Hol ham shunday - ma‘nosiga ko‘ra turli o‘rinlarda turishi mumkin [1,183]. Ingliz tili analitik tillar

oilasiga mansub bo'lganligi sababli, ma'lum bo'lakning gapdagi tartibini kerakli grammatik o'zgarishlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Qiyoslang:

Anora maktabdan keldi. - Maktabdan Anora keldi. - Keldi maktabdan Anora;

Anora came from school. - It was school where Anora came from. - What Anora did was to come from school.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida, gap bo'laklari hech qanday qo'shimcha yoki grammatik vositalarsiz, kesim oldi pozitsiyasiga o'tib aktuallashadi, kesim esa gap propozitsiyasida kommunikativ markaz statusini olmoqda; ingliz tilida esa, gap struktural jihatdan sezilarli darajada o'zgarimoqda: aktuallashgan bo'laklar kleft shaklda gap boshiga o'tmoqda, natijada sodda yoyiq gap qo'shma gap tarzida bir necha bosqichli aktual bo'linish tusini olmoqda.

Shu o'rinda ingliz va chex tillarida aktual bo'linish hodisasi tadqiqotiga tamal toshi qo'ygan V.Mateziusning so'z tartibi haqidagi nazariyasiga yana bir to'xtalib o'tsak. Matezius so'z tartibini tadqiq qilishda gapning grammatik aspekti, gap bo'laklarining bir-biriga tadrijiy bog'lanishi, gap ritmi va, albatta, aktual bo'linishi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib yondashadi [2,126]. Olimning fikricha, agar gapning sintaktik tuzilishi aktual bo'linish bilan mos kelsa, ya'ni tema-remata ketma-ketligi ma'lumdan yangi xabar tomon siljib borsa, so'z tartibiga «neytral» yoki «obyektiv» deya ta'rif beradi [3,239]. Shuningdek, adabiyotlarda mazkur tartib «so'zning to'g'ri tartibi», «noemfatik tartib» yoki «progressiv tartib» kabi atamalar bilan ham nomlanadi [2,127]. Ingliz tilidan farqli o'laroq, so'z tartibi erkin bo'lgan tillarda gapning aktual bo'linishining mazkur to'g'ri tartibi grammatik (sintaktik) tuzilishi bilan mos kelishi yoki kelmasligi mumkin.

Shuningdek, I.I.Kovtunova ta'kidlashicha, kontekstdan ayro olingan gap kontekst ichida aynan shu vaziyat uchun xos bo'lgan kommunikativ tuzilishga ega bo'lishi mumkinki [4,7], mazkur holat aktual bo'linishning matn sathida yana ham o'zgacha qirralar bilan namoyon bo'lishini ko'rsatadi: «*The old man drank his coffee slowly*» jumlasini kontekstdan ayro holda o'z-o'zidan «*chol qahvasini sekin ichdi*» ma'nosida qabul qilinadi. Endi gapni kontekstga solamiz:

«The old man drank his coffee slowly. It was all he would have all day and he knew that he should take it. For a long time now eating had bored him and he never carried a lunch. He had a bottle of water in the bow of the skiff and that was all he needed for the day». (Hemingway). Ya'ni: «*Chol qahvasini imillabgina ichdi. Bo'ldi, kun bo'yi uchun yetarli naflandi, bu ham bo'lsa majburlikdan: anchadan beri yeyishdan zada bo'lganday, o'zi bilan ovqat olib yurmaydi. Qayig'ining tumshug'idagi bir shisha suv uning uchun bir kunlik yemak hisobida edi*». Gapning tarjimasini kontekst talablariga ko'ra ancha o'zgardi, chunki, chol nima uchun qahvani sekinlik bilan ichgani endi ma'lum va ta'sirliroq tarjima shakli shunga ko'ra tanlanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ingliz tilida so'zning qat'iy tartibi gap bo'laklarini aktuallashish imkoniyatlarini o'zbek tili bilan qiyoslaganda, ancha pasaytiradi, zero ingliz tilida, har qanday gap bo'lagining ma'lum pozitsiyasi bor [5,41]. Darak gaplarda so'z tartibi *ega - kesim - to'ldiruvchi - vaziyat holi - o'rin holi - payt holi* – kabi qat'iy qilinishi, ya'ni ingliz tilida:

Smith came from school. (Smit maktabdan keldi) – risoladagi tartib bo'lsa;

From school came Smith. – so'z tartibining buzilishi demakdir. Bu vaziyatda gapning kommunikativ markazi emfatik urg'u yoki qo'shimcha grammatik vositalar orqali faollashadi.

Ekspressivlikdan holi bo‘lgan neytral gaplarda, xususan, ilmiy uslubda, remaning kulminatsiyasi odatda gap so‘ngida qo‘yiladi [5,70]:

*They congratulated **their teacher**.*

*They congratulated **their teacher warmly**.*

*They congratulated **their teacher yesterday**.*

*They congratulated **their teacher in the staff room**.*

Quyida keltirilgan ilmiy uslubga xos bo‘lgan gaplarda ham har bir gap bo‘laklarining so‘nggi qismlari aktuallashmoqda, avvalgi bo‘limlarda berilgan misollardan farqli o‘laroq, butun rema guruhi emas, balki remaning kulminatsion nuqtasini ajratib ko‘rsatamiz:

*It is useful to divide linguistic universals **roughly into two categories**. There are, **first of all, certain**» formal universals « which determine the structure of grammars and the form and organization of rules. In addition, there are» substantive universals», which define the sets of elements that may figure/ in particular grammars [6,14].*

*The method can be refined in both sensitivity and precision. In particular, it appears feasible to increase the sensitivity **by a factor of several hundred through a change in detection technique**. The method seems applicable to the precise measurement of magnetic moments (strictly, gyromagnetic ratios) of most moderately abundant nuclei [7,37].*

Nisbatan ekspressivlikka ega bo‘lgan gaplarda esa tema va remaning gapdagi o‘rni gapning qaysi bo‘lagi aktuallashayotganiga qarab belgilanadi. Agar ega guruhi aktuallashayotgan bo‘lsa, rema, demak, gap boshiga qo‘yiladi, shunga muvofiq tarzda nutq jarayonida ega emfatik urg‘u oladi:

***But Tom** wanted to resk it; so we **slid in there and got three candles**,and Tom laid five cents on the table for pay. (Mark Twain)*

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, eganing aktuallashuvida gapning sintaktik-struktural tuzilishi kommunikativ tuzilishi bilan moslashadi. Bunday vaziyatda rema yozma nutqda kontekstdan anglashilsa, og‘zaki nutqda esa mantiqiy yoki emfatik urg‘u orqali ajratib ko‘rsatiladi. Aytish joizki, mazkur neytral ketma-ketlik, asosan rema guruhi gap so‘ngida keluvchi gap bo‘lagi bilan ifodalanganda ham (kesim, to‘ldiruvchi, hol) kuzatiladi:

***I don't like the looks of it. I don't feel right, somehow** (Jack London)*

***The Gandalf's smoke-ring would go green and come back to hover over the withard's head.** (Tolkien J.R.R.)*

Biroq, so‘z tartibining qat‘iyligi, garchi ekspressivlikdan holi neytral gaplarda uning kommunikativ maqsadda foydalanish imkoniyatini chegaralab qo‘ysa-da, gapni uslubiy jihatdan bo‘yoqdor qilishga xizmat qiluvchi ko‘plab shunday grammatik vositalar bor-ki, ma‘lum bo‘laklarni aktuallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ma‘lumki, inversiyaning asosiy vazifasi gapdagi axborotga qo‘shimcha axborot kiritishdir. Badiiy uslub sintaksisi so‘z tartibida teskari (subyektiv) tartibga keng yo‘l qo‘yilishi bilan ifodalanadi. Inversiya adabiy til me‘yorini buzmaydi. U til imkoniyatlarini amaliy ifodalashi bo‘lib, til qo‘llanilishining ma‘lum qoidalariga bo‘ysunadi. Stilistik inversiya ingliz tilida kuyidagi tuzilishlarda namoyon bo‘ladi: 1. Gap boshida to‘ldiruvchi kelganda.

2. Aniqlovchi aniqlanmishdan so‘ng kelsa.

3. Otli kesimning egadan oldin kelishi. Otli kesim bog‘lovchidan oldin, ikkisi egadan oldin kelsa.

4. Gapda hol egadan oldin kelsa.

5. Kesim egadan oldin kelsa.
6. Vositali to'ldiruvchi gap boshida kelsa.
7. Ergashgan qo'shma gaplarda emfaza ergash gapning boshida kelishi hisobiga hosil bo'ladi. Publitsistika uslubida quyidagi inversiya turlari ko'p uchraydi: gapda kesim birinchi o'rinda kelganda:
"Einstein is the only scientist who has become a cult figure ..." Explains University of Texas Physicist John Wheeler.

XULOSA

Berilgan gaplarda "says", "explains" kesimlari gapning boshida kelgan. Bu esa ingliz tili grammatikasiga mutlaqo xos bo'lmagan hodisadir. Gapda so'z tartibining har qanday o'zgarishi undagi sintaktik munosabatlarni xam o'zgartiradi va bu gapning mazmuniga ta'sir etadi. Lekin quyidagi berilgan gaplarda sintaktik o'zgarishlar inversiya emas, balki semantik inversiya ishlatilgan:

"History doesn't creat a human being. A human being creates history".

Ba'zan sintaktik munosabatlardagi uzgarishlar grammatik ma'noga ta'sir etadi: "*Had I known it?*" So'z tartibi o'zgarishi natijasida so'roq gap paydo bo'lgan (grammatikadagi inversiya). Inversiyaning turlarini she'riyat asarlarida ko'plab uchratish mumkin.

Sintaktik o'zgarishning yana bir turi - bu gapda emfatik mazmunning paydo bo'lishidir. Hozirgi zamon ingliz tilida inversiya deganda, mantiqiy jihatdan gapning bir bo'lagini, emotsional jihatdan butun gapni ajratib ko'rsatish tushuniladi [8,40]. Inversiyaning stilistik vazifasi har xil bo'ishi mumkin. Inversiyaning asosiy stilistik vazifasi muallif butun fikrini singdirgan bo'lakni ajratib ko'rsatishdir.

REFERENCES

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Firbas J. From comparative word order studies. BRNO studies in English, Volume Four, – Praha, 1964.
3. Нажмиддинов, Р. Ю., Мелиқўзиева, Г. Қ., Зокиров, М., & Юсупов, И. (2022). МАРКАЗИЙ ҚИЗИЛҚУМ ФОСФОРИТЛАРИДАН ТАРКИБИДА КАЛЬЦИЙ ВА МАГНИЙ БЎЛГАН КОНЦЕНТРАНГАН ФОСФОРЛИ ОДДИЙ ЎҒИТЛАР ОЛИШ. ИҶТМОИЙ ФАНLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(6), 56-61.
4. Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения // Пражский лингвистический кружок: Сб. статей. – М., 1967.
5. Ковтунова И.И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения. – М.: Просвещение, 1976.
6. Кодирова, Г. К., Шамшидинов, И. Т., Тураев, З., & Нажмиддинов, Р. Ю. У. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПОЛУЧЕНИЯ ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННЫХ ФОСФАТОВ АММОНИЯ ИЗ ЭКСТРАКТНОЙ ФОСФАТНОЙ КИСЛОТЫ НА ОСНОВЕ ФОСФОРИТОВ ЦЕНТРАЛЬНОГО КЫЗЫЛКУМА. Universum: технические науки, (12-3 (81)), 71-75.
7. Шевякова В.Е. Современный английский язык. Порядок слов, актуальное членение, интонация. – М.: Наука, 1980.

8. Shamshidinov, I., et al. "ЭКСТРАКЦИОН ФОСФАТ КИСЛОТАНИ ОҲАКТОШ ХОМАШЁСИ БИЛАН НЕЙТРАЛЛАШ АСОСИДА КАЛЬЦИЙ ВА МАГНИЙ ФОСФАТЛИ ЎҒИТЛАР ОЛИШ." *Science and innovation* 1.A4 (2022): 161-169.
9. Chomskiy N., Halle M. *The sound pattern of English*. – N.Y.: Harper & Row, Publishers, 1968.
10. Purcell E.M, Torrey H.C, Pound R.V. *Resonance Absorption by Nuclear Magnetic Moments in a Solid* / <https://journals.aps.org/pr/pdf/10.1103/PhysRev.69.37>
11. Najmiddinov, R., Shamshidinov, I., Qodirova, G., Nishonov, A., & Sayfiddinov, O. (2022). *МАРКАЗИЙ ҚИЗИЛҚУМ ФОСФОРИТЛАРИ АСОСИДАГИ ЭКСТРАКЦИОН ФОСФАТ КИСЛОТАДАН ЮҚОРИ СИФАТЛИ АММОНИЙ ФОСФАТЛАРИ ОЛИШ.* *Science and innovation*, 1(A4), 150-160.
12. Egamnazarova D. *Turli tizimli tillarda gap bo'laklarini aktuallashtiruvchi vositalar tadqiqi.* *Filol. fan. fal. dok. ...diss.* – Andijon, 2020.
13. Мамуров, Б. А., Шамшидинов, И. Т., Усманов, И. И., & Кодирова, Г. К. (2019). *Исследование процесса нейтрализации экстракционной фосфорной кислоты мелом.* *Universum: химия и биология*, (2 (56)), 21-26.
14. Turdaliev, A., Yuldashev, G., Askarov, K., & Abakumov, E. (2021). *Chemical and biogeochemical features of desert soils of the central Fergana.* *Agriculture*, 67(1), 16-28.